



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No5(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 386 sahifa,
1-may, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



MUNDARIJA

Maktabgacha ta'lim tashkiloti metodistining boshqaruv funksiyalari.....	10
Qarshibayeva Dilfuza Xidirbayevna	
Texnologik mashinalar va jihozlar ta'lim yo'nalishi talabalarida kasbiy kompetensiyani shakllantirishning pedagogik qonuniyatlari va metodologik tizimini ishlab chiqish	15
Elmanov Abbas Begmat o'g'li, Mirzaumidov Asilbek Shuxratjonovich	
Katta yoshdagi guruh bolalarida o'z-o'zini boshqarish qobiliyatini rivojlantirishda o'yinning roli	19
Ergasheva Farangiz Umidjon qizi, Fayzullayev Sharipboy Nurillayevich	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ekologik tafakkurni rivojlantirishning dolzarbligi.....	23
Yaxshiboyeva Nargiza Rustamqulovna	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida inson resurslarini boshqarishda muvozanatlashgan ko'rsatkichlar tizimidan foydalanishning nazariy asoslari	28
Gulmira Jumanova	
Nomoddiy madaniy merosning talaba-yoshlarni yuksak ma'naviyatli shaxs sifatida tarbiyalashdagi ahamiyati	33
Erboyev Suxrob Abdusalomovich	
Maktabgacha yoshdagi bolalar va ularda hissiy-irodaning shakllanishi	37
Davlatova Zebo Haydarovna	
Zamonaviy oilada avlodlararo munosabatlarning pedagogik-psixologik xususiyatlari	40
Ochilova Farida Baxriddinovna	
Maktab va oliy ta'lim muassasalarida qizlar kitobxonligini rivojlantirish metodlari	44
Qo'chqarova Oysha Oltibayevna	
Buyuk allomalar merosidan foydalanishning metodik holati va mavjud muammolari.....	48
Sevara Mamatkarimova	
Futbol o'yinida to'pga kalla bilan zarba berish.....	53
Xolmaxmatov Boburjon Musurmon o'g'li	
Использование современных инновационных методов в процессе обучения русскому языку в иноязычных группах высшего образовательного учреждения.....	56
Курбанова Шаира Исмаиловна	
Maktabgacha ta'lim mutaxassislarini tayyorlashda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ...	60
Kushakova Gulnora Egamkulovna, Muhammadiyeva Shaxzoda Sunnatilla qizi	
Boshlang'ich sinflarda musiqa mashg'ulotlari orqali o'quvchilarning kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish metodlari	63
Muminova Feruza Farxodovna	
Alisher Navoiy merosining yoshlar ma'naviy-estetik tarbiyasidagi ahamiyati	70
Qayumxo'jayev Botirxo'ja Ikromxo'ja o'g'li	
Boshlang'ich ta'lim jarayonida amaliy topshiriqlar orqali tayanch kompetensiyalarni shakllantirish metodikasini takomillashtirish	74
Saidova Dilnoza Maripovna	
К вопросу о классификации современной антиутопии.....	78
Дмитрий Валерьевич Пупонин	
Когнитивная гибкость как фактор психологического благополучия старшеклассников в период адаптации к новым образовательным требованиям	82
Муксинова Динора Азаматовна	
Oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilida ta'lim beruvchi professor-o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini baholash: xalqaro tajribalar qiyosiy tahlili va O'zbekiston amaliyoti	87
Baxtiyarova Muniba Ne'matjon qizi	
Valeologik tarbiya asosida maktabgacha ta'lim tarbiyachilarini tayyorlashda innovatsion va raqamli yondashuvlar	92
Berkinova Charos Islomovna	



Grammatik tushunchalarni o'rgatish metodikasi.....	96
N. R. Masharipova	
Umumiy o'rta ta'lim tizimini takomillashtirish va o'quvchilar bilimni baholashda xorijiy tajribalardan foydalanish finlyandiya ta'lim tizimi misolida.....	99
Obidova Muqaddas Ro'ziqulovna	
The Difference Between Androgogy and Pedagogy.....	106
Pardayeva Aziza Rahmatillojevna	
Elektr mashinalari fanini o'qitishda raqamli ta'lim texnologiyalari.....	110
Shodiyeva Nozina Shuxrat qizi	
Umumta'lim maktablarida direktor o'rinbosarlarining aksiologik yondashuv asosida boshqaruv funksiyalari va vakolatlari hamda maktablarda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish yo'llari.....	113
Toxirov Botirjon G'ofurjon o'g'li	
Ispan tili darslarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirish usullari	119
Tursunqulov Sanjar Dilmurod o'g'li, Shukurullayeva Feruza Dilmurodovna	
Surxondaryo viloyatida yetishtiriladigan ingichka tolali paxta navlarining qo'llanilishi	124
Ubaydullayeva Komila Bozor qizi	
Bo'lajak tarbiyachilarda empatiya hissini shakllantirishning nazariy asosi	127
Xolmirzayeva Gulbahor Bahodirovna	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi	130
Raximova Dilshoda Xoliqberdiyevna	
Bo'lajak sport murabbiylarida kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish mexanizmlari	134
Sherzod Shuxratovich Boboyorov	
Oliy ta'lim muassasalarida talabalar sportini rivojlantirishning iqtisodiy va tashkiliy mexanizmlari.....	138
Sangirov Nuriddin Iriskulovich	
Bo'lajak o'qituvchilarning boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning integrativ modeli	142
Rasulova Umida Bahodir qizi	
Yashil pedagogikaning konseptual modeli va tamoyillari.....	146
Raxmatova Dilnoza Abdurashidovna	
Ta'lim jarayoni ishtirokchilarida emotsional barqarorlikni shakllantirishning pedagogik-psixologik asoslari ..	149
Boymatova Munavvar Ravshan qizi	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda zamonaviy raqamli platformalardan foydalanish samaradorligi.....	152
Lukmonova Salomat Gafurovna	
Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun pedagogik qo'llab-quvvatlash tizimining shakl, metod va vositalari	157
Farmonova Madina Bahriddin qizi	
Innovatsion boshqaruv tizimlarida qaror qabul qilish va kommunikatsiya samaradorligi	161
Sotvoldiyeva Xurliqo G'ayratjon qizi	
Raqamli ta'lim muhitida maktabgacha yoshdagi bolalarning media savodxonligini shakllantirish metodikasi.....	167
Choriyeva Xurmo Panji qizi	
Maktabgacha ta'lim mutaxassisleri malakasini oshirish tizimining zamonaviy tendensiyalari va raqamlashtirish jarayonlarining pedagogik ahamiyati.....	172
Qosimova Sh. N., Dusmaxamedov A. A.	
Maktab o'quvchilarida o'zini o'zi tarbiyalashni shakllantirishning pedagogik asoslari (8–9-sinflar asosida)..	177
Norxo'jayeva Lobar Nuriddin qizi	
STEAM loyihalar yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy va tanqidiy tafakkurni shakllantirish	181
Mirjamolova Moxira Abdugaffor qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning pedagogik ahamiyati va metodik asoslari.....	188
Axmad Bolqiyev	

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalqaro baholash dasturlari asosida baholashning pedagogik asoslari.....	191
<i>Shavqiddin Burxonov</i>	
Boshlang'ich ta'limda liderlik va pedagogik menejment muammolari.....	194
<i>Pardaboyev Doston</i>	
Raqamli ta'lim muhiti: tushunchasi, strukturasi va rivojlanish tendensiyalari.....	197
<i>Kulboyeva Dilnoza Abdug'afurovna</i>	
Особенности применения графических органайзеров на практических занятиях по дисциплине "Практикум литературы народов СНГ".....	199
<i>Татьяна Викторовна Половинкина</i>	
Historical Stages in the Study and Treatment of Scoliosis (Spinal Curvature).....	204
<i>Shermatova Mokhira Baxodir qizi</i>	
Talaba qizlarga badiiy gimnastika cho'qmori yordamida bajariladigan fundamental mashqlarni o'rgatish....	209
<i>Musharafxon Sultanova</i>	
Oliy ta'limda tarbiyaviy ishlarni tashkil etish bo'yicha xalqaro modellarning qiyosiy tahlili.....	213
<i>Ziyotova Madina</i>	
Sport mutaxassislarini tayyorlashda voleybol o'qituvchisining ko'nikmalari va uslubi	216
<i>Turg'unov Baxtiyor O'rolovich</i>	
Matematik masalalarni yechish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy fikrlash va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish	220
<i>Yusupova Latofat Nuriddinovna</i>	
Zamonaviy sharoitda bo'lajak o'qituvchilarda deontologik kompetentlikni rivojlantirishning innovatsion texnologiyalari	228
<i>Nasirova Nigora Baxtiyor qizi</i>	
Paraengil atletika mashg'ulotlarida individual yondashuvning ahamiyati	233
<i>Abduxoliqova Shoiraxon Akramjon qizi</i>	
Biologiya fanini o'qitishda xalq pedagogikasi elementlaridan foydalanish orqali ekologik madaniyatni rivojlantirish	239
<i>Baxrombekova Sojidxon Sherzodjon qizi</i>	
Maktab texnologik ta'limida axborot texnologiyalaridan foydalanishning o'quv samaradorligiga ta'siri: o'rta muddatli istiqbollar (2027–2031)	245
<i>Berdiyeva Gulnoza Rizoqulovna, Tursunov Sherzod Ziyat o'g'li, Ismatullayev Javohir Ubaydulla o'g'li</i>	
Axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali jismoniy tarbiya va sport tizimini boshqarish samaradorligini oshirish	251
<i>Eryigitov Dilshod Xolboyevich</i>	
Enhancing Speaking Skills Productively in English	255
<i>J. M. Fayzullayev, G. R. Elmonova</i>	
Nutqida nuqsoni bo'lgan katta guruh bolalari bilan ishlashning ilmiy-nazariy asoslari	259
<i>Jumanova Iroda Nomozovna, Fayzullayev Sharipboy Nurillayevich</i>	
2–3 yoshli bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotiga ijtimoiy moslashuvi: nazariy va empirik tahlil	263
<i>Klicheva Dilnoza Zulfon qizi</i>	
Inson–texnika tizimida ta'lim olayotgan talabalarda iste'dod namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari	267
<i>Kuvandikova Gulnora Gulamovna</i>	
Bo'lajak pedagoglarning mutaxassis sifatida shakllanishida xavotirlanish holatining namoyon bo'lishi.....	270
<i>Nuriddinov Rasuljon Samitjon o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni maktabga tayyorlashda zamonaviy psixologik-pedagogik yondashuv.....	274
<i>Nuriddinova Maysara Ikramovna, Kodirova Albina Faridovna</i>	
Talabalarda qaror qabul qilishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	279
<i>Rajabova Go'zal Zarifovna</i>	
Musobaqa oldi psixologik tayyorgarlikning tezkorlikka ta'siri.....	283
<i>Sitora Elova Axmatkulovna</i>	



Pediatriya ta'limida sun'iy intellekt – talaba uchun virtual assistent.....	287
<i>Umarkulov Muhtorali Islomkulovich</i>	
Bo'lajak jismoniy tarbiya mutaxassislarida jismoniy savodxonlikni rivojlantirishning pedagogik asoslari.....	290
<i>Xakimov Xurshid Nozimovich</i>	
Сущность и виды познавательной активности детей 5–6 лет.....	294
<i>Джамилова Н. Н., Кудратова М. У.</i>	
Uzluksiz ta'lim jarayonida mustaqil fikrlovchi, ijodkor shaxsni tarbiyalashning pedagogik-psixologik masalalari.....	298
<i>Siddiqova Sanobar Xaydarovna</i>	
Ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilish, ijodiy faolligini oshirish.....	301
<i>Siddiqova Sanobar Xaydarovna, Qushoqova Guzal</i>	
Badiiy adabiyotda Ibn Sino obrazining yaratilishidagi o'ziga xosliklar.....	304
<i>Tangirov A. J.</i>	
Ta'lim klasteri asosida zaif eshituvchi bolalarni inklyuziv ta'lim muhitiga moslashtirishning pedagogik mexanizmlari.....	309
<i>Dilnoza Xushvaktovna Ernazarova</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish.....	313
<i>Payzullaeva Gozzal Bayrambayevna</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarda pedagogik mas'uliyat ko'nikmasini rivojlantirishning nazariy-amaliy asoslari.....	317
<i>Maxramova Gulchexra Maxsudbek qizi</i>	
Maxsus ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning pedagogik samaradorligi.....	320
<i>Tashkenbayeva Dilafuz Baxtiyor qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirishga qo'yiladigan talablar.....	325
<i>Xazratkulova Shoira Noraliyevna</i>	
Musiq madaniyati darslarida multimedia vositalarida musiqa o'qituvchisining kompetensiyaviy tayyorgarligi.....	329
<i>Qudratova Elnoz Ismatillayevna, Ismailova Sevinch, G'oibnazarov Elmurod</i>	
Boshlang'ich ta'limda nutqiy kompetensiyani rivojlantirishning didaktik modeli.....	334
<i>Tillaboyeva Havasxon</i>	
Diskursiv yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq madaniyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish.....	340
<i>Boynazarova Nilufar Tilovmurot qizi</i>	
Millatlarning o'ziga xos dunyoqarashining psixologik xususiyatlari.....	346
<i>Murxashev Axmadxon Olimjon o'g'li</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarining intellektual-ijodiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik strategiyalari.....	349
<i>Ergasheva Sitora Baxriddin qizi</i>	
Sinergetik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashni takomillashtirish zarurati va imkoniyatlari.....	353
<i>Xo'shboqova Surayyo Baxtiyor qizi</i>	
Interfaol metodlar asosida o'smirlarda mustaqil tafakkurni rivojlantirish.....	357
<i>Ismoilova Mashxura Mashrabbek qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish.....	360
<i>Kuvanakova Guljaxon</i>	
The Role of Autonomous Learning in Developing English Language Proficiency of University Students in Uzbekistan.....	363
<i>Omonova Kamola, Mutabar Zikriddinova</i>	
Maktablarda fasilitator faoliyatini tashkil etish borasida ayrim mulohazalar.....	366
<i>Qahhorova Marjona Ixtiyor qizi</i>	
Модель и педагогические условия формирования профессиональных компетенций будущих учителей в области информационной безопасности.....	370
<i>Сагинбаева Кымбат Кенжегалиевна, Нуриддинова Майсара Икрамовна</i>	

Boshlang'ich sinf darslarida kreativ fikrlashni rivojlantirishda zamonaviy pedagogik metodlardan foydalanish.....	374
Xudoynazarova Muxlisa Bakhadirovna	
Совершенствование методической компетентности будущих учителей начальных классов на основе креативного подхода	377
Дониёрова Лайло Худайбердиевна	



BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHISINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHGA QO'YILADIGAN TALABLAR

Xazratkulova Shoira Noraliyevna

Termiz davlat pedagogika instituti
Boshlang'ich ta'lim kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Zamonaviy ta'lim jarayonining sifati va samaradorligini oshirishda boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirish, metodlardan unumli foydalanish hamda sifatli ta'limni tashkil etish masalalari yoritilgan. Ushbu jarayonning pedagogning kasbiy mahorati bilan uzviy bog'liqligi asoslab berilgan. Ta'lim-tarbiya jarayonining ahamiyati ochib berilib, zamonaviy pedagog egallashi zarur bo'lgan kasbiy kompetentlik va pedagogik mahorat ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: kompetentlik, kasbiy kompetentlik, bilim, ko'nikma, malaka, kreativlik, pedagogik mahorat.

Abstract: The improvement of the quality and effectiveness of the modern educational process is examined through the development of primary school teachers' professional competence, the effective use of teaching methods, and the provision of high-quality education. The interrelation between these factors and the teacher's professional mastery is substantiated. The significance of the educational process is highlighted, and the professional competence required of a modern teacher, along with pedagogical mastery, is analyzed from a scientific perspective.

Key words: competence, professional competence, knowledge, skills, abilities, creativity, pedagogical mastery.

Аннотация: Рассматриваются вопросы повышения качества и эффективности современного образовательного процесса, развития профессиональной компетентности учителя начальных классов, эффективного использования методов обучения и обеспечения качественного образования. Обоснована взаимосвязь указанных факторов с профессиональным мастерством педагога. Раскрыта значимость учебно-воспитательного процесса, а также с научной точки зрения проанализированы профессиональная компетентность современного педагога и его педагогическое мастерство.

Ключевые слова: компетентность, профессиональная компетентность, знания, навыки, умения, креативность, педагогическое мастерство.

KIRISH

Dunyoda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnik o'zgarishlar doimiy takomillashib borayotgan innovatsion yondashuv asosida o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantiruvchi ta'lim jarayoniga tatbiq etilmoqda.

Ta'limning maqsad va vazifalarini yangidan aniqlanishi, mehnat bozorini "bilimli" bitiruvchidan kompetentli bitiruvchi tomon o'zgarganligi dunyoning rivojlangan mamlakatlari ta'lim tizimlarini kompetentlik yo'nalishida modernizatsiyalashning asosiy sabablari hisoblanadi.

Ta'limning maqsad va mazmunini, o'qitish usullari va texnologiyalari hamda ularning o'qitishning kafolatlangan natijalarini kompetentlik talablariga moslashtirish dolzarb masala sifatida e'tirof etilmoqda.

Shu bois, pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish muhim ijtimoiy-pedagogik vazifalar sirasiga kiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalasi pedagogika fanida muhim ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida o'rganilgan.

N. V. Kuzmina o'qituvchi shaxsining professionalligi uning bilim, ko'nikma va malakalar uyg'unligida namoyon bo'lishini asoslab, pedagogik faoliyat samaradorligi bevosita o'qituvchining kasbiy tayyorgarlik darajasiga bog'liqligini ta'kidlaydi.

S. A. Vdovina esa kasbiy-pedagogik kompetentlikni tizimli hodisa sifatida izohlab, uning tarkibiy qismlariga motivatsion, kognitiv va faoliyat komponentlarini kiritadi hamda bu komponentlarning o'zaro uyg'unligi o'qituvchining samarali faoliyatini ta'minlashini ko'rsatadi.

Mahmudov S. Yu. va hammualliflar pedagogik monitoring asosida ta'lim jarayonini loyihalash va baholash masalalarini yoritib, o'qituvchining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda muntazam tahlil va nazorat mexanizmlarining muhimligini asoslaydi.

N. A. Muslimov o'z tadqiqotida kasb ta'limi o'qituvchisining kasbiy shakllanish jarayonini nazariy va metodik jihatdan tahlil qilib, kompetentlikni shakllantirish uzluksiz ta'lim tizimi bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi.

M. A. Umaraliyeva esa boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-biluv faoliyatini shakllantirishda kompetensiyaviy yondashuvning ahamiyatini ochib berib, o'qituvchining metodik tayyorgarligi va innovatsion yondashuvlari hal qiluvchi omil ekanligini ta'kidlaydi.

Zamonaviy tadqiqotlarda boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda innovatsion metodlar va pedagogik texnologiyalarning roli alohida qayd etiladi.

Sh. N. Xazratkulova o'z ilmiy ishlarida boshlang'ich sinflarda tarbiya jarayonini takomillashtirish, zamonaviy o'qitish metodlaridan foydalanish hamda o'qituvchi kasb madaniyatini rivojlantirish masalalarini yoritadi. Xususan, 2022-yil va 2023-yilga oid tadqiqotlarda o'quvchilarga yo'naltirilgan ta'lim modeli, interfaol metodlar va pedagogik yondashuvlar o'qituvchi kompetentligini rivojlantirishning muhim omili sifatida asoslab berilgan.

Ushbu ilmiy qarashlar boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetentligini shakllantirish jarayonida nazariy va amaliy asoslar uyg'unligini ta'minlash zarurligini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida ma'lumotlarni yig'ish uchun bir nechta ilmiy usullardan kompleks tarzda foydalanildi. Avvalo, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini aniqlash maqsadida pedagogik kuzatish usuli qo'llanilib, ularning dars jarayonidagi faoliyati, metodlardan foydalanish darajasi hamda o'quvchilar bilan muloqoti tizimli ravishda o'rganildi. Shuningdek, anketalash va suhbat usullari orqali o'qituvchilarning kasbiy qarashlari, o'zini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoji hamda kompetentlik darajasiga ta'sir etuvchi omillar haqida empirik ma'lumotlar to'plandi. Tadqiqotda hujjatlarni tahlil qilish usuli asosida o'quv rejalari, metodik ishlanmalar va normativ materiallar o'rganildi, bu esa o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasini aniqlashga xizmat qildi.

Olingan ma'lumotlar sifat va miqdoriy tahlil usullari yordamida qayta ishlanib, ularning o'zaro bog'liqligi aniqlashtirildi. Jumladan, qiyosiy tahlil orqali turli o'qituvchilarning kompetentlik darajalari o'rtasidagi farqlar aniqlanib, umumlashtirish asosida ilmiy xulosalar chiqarildi. Natijalarni ishonchligini ta'minlash maqsadida statistik tahlil elementlaridan foydalanilib, olingan ko'rsatkichlar tizimlashtirildi hamda interpretatsiya qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'qituvchi va uning kasbiy sifatlariga oid muammolar chet ellik olimlar asarlarida o'z ifodasini topgan. Jumladan, A. Disterverg o'qituvchining ta'limdagi o'rnini, o'z faoliyatini bilishi, uni sevishi, o'quvchilarni yoqtirishi bilan izohlaydi. O'qituvchi bolalarning individual xususiyatlari, qobiliyati, faoliyat uslubi to'g'risida muayyan darajada bilimga ega bo'lishi kerakligini ham ta'kidlab o'tadi.

Shuningdek, A. Disterverg: "Yaxshi o'qituvchi o'zining tarbiya prinsiplardan hech qachon qaytmaydi. O'qituvchi o'z ustida doimo mustaqil ishlashi lozim. Yomon o'qituvchi haqiqatni aytib qo'ya qoladi, yaxshi o'qituvchi esa bolalarga haqiqatni topishga o'rgatadi", – deb ifodalaydi.

A. I. Gersen mulohazasiga ko'ra, o'qituvchining asosiy hislati ularning bolalar ruhiy dunyosini tushuna olishi hamda o'qituvchilarda axloqiy qobiliyatning mavjudligidir. Uning fikricha, har qanday o'qituvchida mahorat va iste'dod bo'lishi zarurki, unga boshqa o'qituvchilar havas qila olsin.

Rus pedagogi K. D. Ushinskiy ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchi shaxsiga yuqori baho berib: "Hech bir dastur, sun'iy organizm puxta ishlab chiqilganiga qaramay, inson shaxsining o'rnini bosa olmaydi. O'qituvchi shaxsining o'ziga xos muhim fazilatlarini quyidagicha namoyon bo'ladi: o'qituvchining xarakteri, ya'ni uning hamkasblari va atrofdegilar bilan muloqoti, his-tuyg'usi, uning ta'lim oluvchilar bilan munosabatga kirishish layoqati, o'qituvchining ta'lim oluvchilarga xuddi ota-onasi kabi yaqinligi", – deb e'tirof etadi.

O'qituvchi kasbining sharafligi, mas'uliyatligi, murakkabligi, muallimning mahorati, ularga qo'yiladigan talablar, ustozlarning fazilatlariga oid fikrlar Sharq ma'naviyati va madaniyatining xilma-xil jihatlarida, ayniqsa, Uyg'onish davrida juda rivojlangan bo'lib, bu davrda yashab ijod etgan Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abdurahmon Jomiy, A. Navoiy va boshqa ko'plab mutafakkirlarning ijodlari pedagogik tafakkur taraqqiyotida hamda yosh murabbiylarning ma'naviy-axloqiy kamolotida muhim manba bo'lib xizmat qiladi.



Abu Nasr Forobiy zamonasining peshqadam bilimdoni sifatida tinimsiz ijodiy ishlar bilan shug'ullanish bilan bir qatorda muallimlik ham qilgan. Forobiy o'qitishning mazmuni va qonun-qoidalarini o'zining amaliy faoliyatida sinab ko'rgan. Forobiy o'qituvchi shaxsiga xos qator fazilatlarga xolisona, odilona va oqilona sharh berish imkoniyatiga erishgan buyuk zotdir. Mutafakkirning fikricha, o'qituvchi o'zida quyidagi fazilatlarni mujas-samlashtirishi kerak:

- barcha organlari mukammal taraqqiy etgan;
- barcha masalani tez va mantiqiy tushuna oladigan;
- xotirasi kuchli;
- zehni o'tkir;
- nutqi ravon;
- bilish va o'qishga muhabbati kuchli;
- ko'zi to'q, pokiza;
- haqiqatparvar;
- g'ururli va vijdonli;
- pulni sevmaydigan;
- adolatli;
- qat'iyatli, qo'rqmas va jasur.

Forobiy bolalarning fe'l-atvoriga qarab tarbiya jarayonida "qattiq" yoki "yumshoq" usullardan foydalanish kerak deb hisoblagan:

1. Ta'lim oluvchilar o'qish va o'rganishga qiziqqan bo'lsa, ta'lim-tarbiya jarayonida yumshoq usul qo'llaniladi;
2. Ta'lim oluvchilar o'zboshimcha, itoatsiz bo'lsa, qattiq usul qo'llanishi lozim.

Alloma ustoz-o'qituvchining mas'uliyatiga quyidagicha ta'rif beradi: "Ustoz, – deydi u, – shogirdlariga qattiq zug'um ham, haddan tashqari ko'ngilchanlik ham qilmasligi lozim. Chunki ortiqcha zug'um shogirdga ustozga nisbatan nafrat uyg'otadi, bordi-yu ustoz juda ham yumshoq bo'lsa, shogird uni mensimay qo'yadi va beradigan bilimdan sovib ham qoladi".

Alloma tomonidan berilgan sharhlar, teran fikrlar va mulohazalar bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

Ibn Sino o'qituvchi tanlashni muhim masala deb hisoblagan. U bola 6 yoshga to'lishi bilan uni o'qituvchining tarbiyasiga berishni tavsiya qiladi. Tarbiyachi rostgo'y, dono, odil, ozoda kiyinadigan, xushmuomala bo'lishi zarurligini uqtiradi. Yosh avlodni o'qitadigan hamda tarbiyalaydigan kishilar oldiga bir qancha talablar qo'yadi. Uning fikricha:

1. Tarbiyachi bolalar bilan muomalada bosiq bo'lishi kerak;
2. Muallim o'quvchilar ta'limni qanday o'zlashtirayotganini kuzatib borishi zarur;
3. O'qitish jarayonida muallim turli usullarni qo'llashi darkor;
4. Tarbiyachi o'quvchining xotirasi va boshqa aqliy qobiliyatini bilishi lozim;
5. Tarbiyachi o'z fikrini o'quvchiga bayon qilishdan oldin masalaning mohiyatiga o'zi tushunib olishi, keyin uni qisqa, aniq adabiy tilda tushuntirishi, bunda ko'p gapirishdan qochishi lozim;
6. Har bir fikr haqiqat bilan tasdiqlanishi, bolalarda hissiyot uyg'otadigan bo'lishi zarur.

Binobarin, bu kabi fazilatlar o'qituvchining ta'lim-tarbiyadagi yuksak mahoratini belgilaydi va natijada jamiyat uchun xizmat qiladigan komil yosh yigit-qizlar voyaga yetadi.

Shunday qilib, mutafakkirlarning o'z asarlarida o'qituvchiga bir qator muhim fazilatlar mavjud bo'lishi kerakligini bayon qilganlar. Bularning qatoriga umumiy tarzda quyidagilarni kiritish mumkin:

- o'qituvchi har tomonlama barkamol bo'lishi;
- o'zining yuksak hislatlari va his-tuyg'ulari bilan boshqa kasbdagi kishilardan ajralib turishi;
- bolalar ruhiyatiga oson kira olishi;
- darslarni o'zlashtirishda orqada qolgan o'quvchilar bilan individual ishlashi;
- o'quvchilar diqqatini o'ziga torta olishi;

- mustaqil ishlashi va o'z mahorati, malakasini oshirishi;
- pedagogik qobiliyat va odobga ega bo'lishi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, Sharq va G'arb mutafakkirlarining o'qituvchi kasbi, uning mahorati haqidagi mulohazalari hozirgi kungacha o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda.

Ta'lim jarayonini takomillashtirishning muhim omili ta'lim tizimida o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini yuqori darajada shakllantirish bilan uzviy bog'liq. Shu sababli, zamonaviy ta'lim texnologiyalari imkoniyatlaridan hamda yaratilayotgan o'quv-uslubiy majmualardan unumli foydalanish negizida o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish jarayonining nazariy hamda amaliy asoslarini yaratish dolzarb vazifalardan biri ekanligini belgilaydi.

O'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda quyidagi bir qator ko'nikmalarga ega bo'lishi lozimligi belgilangan:

- o'qituvchilar o'z faoliyati jarayonida ibrat, namuna ko'rsatish orqali yoshlarning faolligini, his-tuyg'usini, xatti-harakatini rivojlantirishi va ularga ta'sir eta olishi;
- har bir mashg'ulot uchun material tanlash, uni murakkablashtirish va oldingi hamda keyingilari bilan aloqasini ta'minlashni nazarda tutish, mashg'ulot o'yin, mehnat topshiriqlari va shu kabilarni yoshlarning yosh imkoniyatlari, ularni tarbiyalash va rivojlantirish istiqbollari hisobga olgan holda tashkil etish;
- pedagogik jarayonni o'qituvchilar jamoasi va yoshlar bilan ishlashni qamrab olib, ta'limiy-tarbiyaviy vositalar majmuidan foydalangan holda rejalashtirish;
- o'z ish o'rnini tashkil etish, zarur qo'llanmalar va hujjatlarni tayyorlash hamda ularni berilgan talablar asosida yuritishni belgilab olish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida keltirilgan fikrlar, ifodalangan ta'rif hamda tavsiflarning mazmun-mohiyati o'qituvchilik kasbini egallash hamda mazkur kasb yo'nalishida kompetentli mutaxassis bo'lish uchun o'ziga xos talablar mavjudligini ko'rsatishi bilan bir qatorda, kompetentlik komponentlari bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka, qobiliyat, hislatlar hamda kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy sifatlarni shakllantirish va rivojlantirishning asoslarini hamda mazkur maqsadga yo'naltirilgan jarayonlarni alohida o'rganish zaruratini nazarda tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyuldagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 422-son qarori.
3. Абу Наср Форобий. "Бахт-саодатга эришиш йўллари ҳақида рисола". – Т., 1992. – 120 б.
4. Вдовина С. А. "Профессионально-педагогическая компетентность и ее структура" // Современные направления развития педагогической мысли и педагогика И. Е. Шварца. Материалы международной научно-практической конференции. 1–2 июня 2009 г., г. Пермь. Часть I.
5. Кузьмина Н. В. "Профессионализм личности преподавателя и мастера производственного обучения". – М., 1990.
6. Махмудов С. Ю., Голиш Л. В., Нуриддинов Б., Алламуратов Ш., Ахметова К. Педагогический мониторинг: проектирование и реализация. Экспериментальное методическое пособие из серии "Что знать обучающему о современных технологиях обучения?". – Т.: ИРСППО, 2001.
7. Муслимов Н. А. "Касб таълими ўқитувчисини касбий шакллантиришнинг назарий-методик асослари". Пед. фан. док. дисс. – Т., 2007.
8. Умаралиева М. А. "Бошланғич синф ўқувчилари ўқув-билув фаолиятини шакллантиришда педагогининг компетенциявий ёндашуви" // Бошланғич таълим сифат ва самарадорлигини ошириш: муаммо ва ечимлар. Республика илмий-амалий конференцияси. 2014-йил. – Б. 46–48.
9. Хазраткулова Ш. Н. "Совершенствование методов воспитания на занятиях в начальных классах". Международная научно-практическая конференция. АЭТЕРНА. Уфа, 1 августа 2022 г.
10. Khazratkulova Shoira Noraliyevna. Use of modern teaching methods in education of students in primary schools // EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR) – Peer Reviewed Journal. India, 2022-yil fevral. – B. 123–126.
11. Khazratkulova Sh. N. "Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining kasb madaniyati va mutaxassis modeli" // NamDU ilmiy axborotnomasi. – 2022-yil, 10-son. www.journal.namdu.uz
12. Sh. N. Khazratkulova. "Education directed to students in teaching the science of education in primary grades: distinctive aspects" // Web of Scientist: International Scientific Research Journal (WoS). April, 2023.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.